


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	



BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI

Muminov Bekzod Polvonovich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada banklar transformatsiyasi jarayonida aktivlar samaradorligini tahlil qilish masalalari o'rganilgan. Jumladan, tijorat banklari aktivlarining tarkibi, shakllanish mexanizmlari va dinamik o'zgarishlari hamda aktivlar samaradorligini ifodalovchi moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Tijorat banklari aktivlari bank resurslaridan foydalanish yo'nalishlarini aks ettiruvchi muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, ularning tarkibi bankning daromadlilik darajasi, likvidligi, risklarga bardoshlilik va moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Aktivlar tarkibida kredit qo'yilmalari, investitsiya portfeli, boshqa banklardagi mablag'lar, naqd pul va unga tenglashtirilgan aktivlar, shuningdek boshqa daromad keltiruvchi moliyaviy instrumentlar muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: banklar transformatsiyasi, tijorat banklari, bank aktivlari, xalqaro banklar, likvidlilik, risklilik darajasi, korporativ boshqaruv tizimi, risk monitoringi, aktivlar samaradorligi, aktivlarni boshqarish.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы анализа эффективности активов в процессе трансформации банков. Рассмотрены структура, механизмы формирования и динамические изменения активов коммерческих банков, а также проведен анализ финансово-экономических показателей, характеризующих эффективность использования банковских активов. Активы коммерческих банков являются важной экономической категорией, отражающей направления использования банковских ресурсов. Их структура определяет уровень доходности банка, ликвидности, устойчивости к рискам и финансовой стабильности. В составе активов значительное место занимают кредитные вложения, инвестиционный портфель, средства в других банках, денежные средства и их эквиваленты, а также другие доходные финансовые инструменты.

Ключевые слова: трансформация банков, коммерческие банки, банковские активы, международные банки, ликвидность, уровень риска, система корпоративного управления, мониторинг рисков, эффективность активов, управление активами.

Abstract. This article examines the analysis of asset efficiency in the process of banking transformation. In particular, it analyzes the structure, formation mechanisms, and dynamic changes of commercial bank assets, as well as financial and economic indicators that characterize asset performance. Commercial bank assets represent an important economic category reflecting the directions of bank resource utilization. Their composition determines the bank's profitability, liquidity, resilience to risks, and overall financial stability. The asset structure typically includes loan portfolios, investment portfolios, funds placed in other banks, cash and cash equivalents, as well as other income-generating financial instruments.

Keywords: banking transformation, commercial banks, bank assets, international banks, liquidity, risk level, corporate governance system, risk monitoring, asset efficiency, asset management.

KIRISH

Bugungi kunda global moliya bozorlarida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi hamda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank tizimi faoliyatiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari iqtisodiyotda nafaqat vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb etuvchi va ularni qayta taqsimlovchi moliyaviy vositachi sifatida, balki investitsion faollikni rag'batlantiruvchi, real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan tijorat banklari aktivlari tarkibini shakllantirish, ularning samarali joylashtirilishini ta'minlash va dinamik o'zgarishlarini tizimli tahlil qilish bank menejmentining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari aktivlari bank resurslaridan foydalanish yo'nalishlarini ifodalovchi muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, ularning tarkibi bankning daromadlilik darajasi, likvidligi, risklarga bardoshlilik hamda moliyaviy barqarorligini belgilab beradi. Aktivlar tarkibida, odatda, kredit qo'yilmalari, investitsiya portfeli, boshqa banklardagi mablag'lar, naqd pul va unga tenglashtirilgan aktivlar, shuningdek, boshqa daromad keltiruvchi moliyaviy instrumentlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu aktivlarning o'zaro nisbatini ilmiy asosda baholash bank faoliyati samaradorligini aniqlash, mavjud resurslardan foydalanish darajasini tahlil qilish va istiqboldagi moliyaviy strategiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklari aktivlarining shakllanish jarayoni jalb qilingan va o'z mablag'larining joylashtirilish

yo'nalishlari bilan bevosita bog'liqdir. Bank aktivlari tarkibida kredit operatsiyalari yetakchi o'rinni egallashi tabiiy bo'lsa-da, ularning haddan tashqari yuqori ulushi likvidlik va kredit risklarining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish, investitsiya operatsiyalarini kengaytirish, qisqa va uzoq muddatli aktivlar o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash tijorat banklari barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro darajadagi izlanishlarni o'rganish asosida ta'kidlash mumkinki, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish, mazkur jarayonda moliyaviy rejalashtirish, umuman, bank aktivlarini boshqarish va rivojlantirish aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotida muhim hisoblanadi.

Naturalistik nazariyaning asoschilari — ingliz iqtisodchilari A. Smit va D. Rikardo, shuningdek, fransuz olimlari J. B. Sey, F. Bastiya hamda amerikalik iqtisodchi D. Mak-Kullox — kreditni iqtisodiyotdagi mavjud moddiy boyliklarning qayta taqsimlanish vositasi sifatida talqin qilganlar. Ularning fikricha, ssuda kapitali real ishlab chiqarish kapitalining bir ko'rinishi bo'lib, iqtisodiyotda moddiy resurslarning qayta aylanishini ta'minlaydi.

Kreditning kapital yaratuvchilik nazariyasini ingliz iqtisodchisi Jon Lo ilgari surgan bo'lib, u kreditlar iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratishi, ya'ni kredit yangi qiymat yaratuvchi iqtisodiy kuch ekanligini ta'kidlagan. Ushbu nazariyani keyinchalik I. Shumpeter, A. Gan, J. Keyns, R. Xoutri, M. Fridmen kabi olimlar rivojlantirganlar.

Shumpeter yondashuvida kredit innovatsiyalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan "ijodiy vayronkorlik" mexanizmi sifatida qaraladi. Fridmen esa kreditning o'zi emas, balki pul massasi va foiz stavkalari iqtisodiyotdagi asosiy boshqaruv vositasi ekanini ta'kidlaydi.

1950-yillarda R. Lukas tomonidan "ratsional taxminlar" konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan bu nazariya bank aktivlarini joylashtirishda mijozlarning kelgusidagi daromad oqimlarini prognozlashni asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan, aktivlar samaradorligini oshirish uchun banklar mijozlarning naqd pul oqimlari (cash flow), to'lov qobiliyati, barqaror daromad manbalari va foyda marjasini inobatga olgan holda kredit ajratishi lozim. O'zbekiston bank tizimi uchun bu yondashuv mijoz asosidagi kredit riskini kamaytirish va aktivlardan olinadigan sof foydani (ROA) barqarorlashtirish vositasi sifatida amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari aktivlarining samaradorligini baholash, ularning tarkibiy tuzilishi va dinamik o'zgarishlarini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini bank faoliyati samaradorligini baholashga oid zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, bank aktivlarini boshqarish konsepsiyalari hamda moliyaviy tahlil usullari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, guruhlash, umumlashtirish va iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi. Tijorat banklari aktivlarining hajmi, tarkibi va samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda mutlaq, nisbiy va o'rtaacha ko'rsatkichlar hisoblandi. Shuningdek, bank aktivlarining tarkibiy o'zgarishlarini aniqlash maqsadida vertikal va gorizontaal tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank aktivlarining dinamik o'zgarishlarini tahlil qilish esa muayyan davr davomida aktivlar hajmi, tarkibi va sifatida yuz bergan o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Bunday tahlil orqali kredit portfelining o'sish sur'atlari, muammoli aktivlar ulushi, investitsiya qo'yilmalari dinamikasi, likvid aktivlar darajasi hamda aktivlardan olinayotgan daromad ko'rsatkichlari baholanadi. Natijada tijorat banklarining moliyaviy salohiyati, resurslardan foydalanish samaradorligi va risklarga nisbatan barqarorligi haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi (1-jadval).

1-jadval
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2020-2025-yillardagi aktivlari tarkibi¹ mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.01.2026
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	10 686,3	19 309,1	20 201,8	25 154,3	25 617
Markaziy bankdagi mablag'lar	31 514,6	36 592,1	33 228,0	34 511,8	43 925



Boshqa banklardagi mablag'lar rezidentlar	13 302,5	17 423,7	24 368,5	29 175,9	27 713
Boshqa banklardagi mablag'lar norezidentlar	25 074,0	37 688,3	28 862,5	36 039,3	51 738
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	19 633,7	31 507,9	32 548,3	59 613,9	102 979
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	1 251,0	1 606,3	3 334,0	432,4	778
Kredit qo'yilmalari, sof	316 382,4	378 909,2	457 847,1	514 692,6	587 039
Asosiy vositalar, sof	11 031,9	14 242,9	19 874,9	24 955,8	29 894
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	9 387,1	12 295,3	19 249,8	23 835,8	27 973
Bankning boshqa xususiy mulklari	1 339,4	3 065,5	4 483,5	6 558,9	9 613
Boshqa aktivlar	5 319,6	4 105,8	8 158,7	14 359,5	17 494
Jami aktivlar	444 922,5	556 746,3	652 157,1	769 330,4	924 763

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jadval ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari tarkibida 2020–2025-yillar davomida sezilarli miqdoriy va tarkibiy o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda jami aktivlar hajmi 2022-yil 1-yanvardagi 444922,5 mlrd so'mdan 2026-yil 1-yanvar holatiga 924763 mlrd so'mga yetgan. Bu esa tijorat banklari aktivlari besh yillik davrda qariyb 2,1 barobarga oshganligini anglatadi. Mazkur o'sish bank tizimida moliyaviy resurslar bazasining kengayib borayotgani, kreditlash hajmining ortgani, investitsion faollik kuchaygani hamda bank aktiv operatsiyalarining diversifikatsiyalashayotganidan dalolat beradi.

Tijorat banklari aktivlari tarkibida eng yuqori ulushni kredit qo'yilmalari egallamoqda. Jumladan, sof kredit qo'yilmalari 2022-yil 1-yanvarda 316382,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga kelib 587039 mlrd so'mga yetgan. Bu davr mobaynida kredit qo'yilmalari hajmi 270656,6 mlrd so'mga oshgan. Mazkur holat tijorat banklarining iqtisodiyot real sektorini moliyalashtirishdagi ishtiroki kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kredit qo'yilmalari aktivlar tarkibida yetakchi o'rinni egallashi banklar daromad bazasini mustahkamlasa-da, kredit riski, muammoli aktivlar ulushi va likvidlikka bosim kabi omillarni doimiy nazorat qilish zarurligini ham oshiradi.

Tahlil davrida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hajmining jadal o'sishi alohida e'tiborga molikdir. Ushbu ko'rsatkich 2022-yil 1-yanvarda 19633,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvarga kelib 102979 mlrd so'mga yetgan. Ya'ni mazkur aktiv turi besh yil davomida 5 barobardan ortiq o'sgan. Bu tijorat banklarining faqat kredit operatsiyalariga tayanib qolmasdan, qimmatli qog'ozlar bozori orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga intilayotganini bildiradi. Investitsiya portfelining kengayishi bank aktivlari tarkibida muvozanatni ta'minlash, likvidlikni boshqarish va barqaror foiz daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning Markaziy bankdagi mablag'lari ham tahlil qilinayotgan davrda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, ushbu ko'rsatkich 2022-yil 1-yanvarda 31514,6 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvarda 43925 mlrd so'mga yetgan. Bu banklarning majburiy zaxira talablarini bajarishi, qisqa muddatli likvidlikni ta'minlashi hamda pul-kredit siyosati sharoitlariga moslashayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga, ushbu aktivlarning haddan tashqari yuqori bo'lishi bank resurslarining daromad keltiruvchi aktivlarga yetarli darajada yo'naltirilmayotganidan ham dalolat berishi mumkin. Shu sababli Markaziy bankdagi mablag'lar miqdorini likvidlik va rentabellik o'rtasidagi optimal nisbat asosida boshqarish muhimdir.

Boshqa banklardagi mablag'lar tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Rezident banklardagi mablag'lar 2022-yil 1-yanvardagi 13302,5 mlrd so'mdan 2026-yil 1-yanvarda 27713 mlrd so'mga yetgan. Norezident banklardagi mablag'lar esa shu davrda 25074,0 mlrd so'mdan 51738 mlrd so'mga oshgan. Ayniqsa, norezident banklardagi mablag'larning yuqori sur'atlarda o'sishi tijorat banklarining xalqaro moliya bozorlari bilan aloqalari kengayib borayotganini, valyuta operatsiyalari va tashqi iqtisodiy faoliyatga xizmat ko'rsatish hajmi ortayotganini ko'rsatadi. Biroq bunday aktivlar valyuta riski, foiz stavkalari o'zgarishi va tashqi moliyaviy muhitdagi beqarorlikka nisbatan sezgir bo'lishi mumkin.

Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari 2022-yil 1-yanvardagi 10686,3 mlrd so'mdan 2026-yil 1-yanvar holatiga 25617 mlrd so'mga yetgan. Ushbu o'sish banklarning joriy likvidlikni ta'minlash, mijozlar to'lov talablarini o'z vaqtida bajarish va naqd pul aylanmasiga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengayganini bildiradi. Shu bilan birga, naqd pul va unga tenglashtirilgan aktivlarning yuqori ulushi bank uchun xavfsizlik va likvidlik nuqtayi nazaridan ijobiy bo'lsa-da, daromadlilik jihatidan kredit va investitsiya aktivlariga nisbatan past

samaradorlikka ega.

Asosiy vositalarning sof ko'rsatkichi ham izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2022-yil 1-yanvarda 11031,9 mlrd so'mni, 2026-yil 1-yanvarda esa 29894 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu banklarning moddiy-texnik bazasi, filial infratuzilmasi, axborot texnologiyalari va raqamli xizmat ko'rsatish tizimlariga investitsiyalar hajmi oshayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlari rivojlanayotgan sharoitda asosiy vositalar va texnologik infratuzilmaning kengayishi bank xizmatlari sifati va operatsion samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar hajmining 2022-yildagi 9387,1 mlrd so'mdan 2026-yilda 27973 mlrd so'mga oshgani banklarning foiz daromadlari bazasi kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bu, avvalo, kredit qo'yilmalari va foiz keltiruvchi boshqa aktivlar hajmining ortishi bilan bog'liq. Biroq ushbu ko'rsatkichning keskin o'sishi bilan bir qatorda, hisoblangan foizlarning o'z vaqtida undirilishi, muddati o'tgan foizlar ulushi va aktivlar sifati masalalarini ham alohida tahlil qilish zarur.

Bankning boshqa xususiy mulklari va boshqa aktivlar hajmida ham o'sish kuzatilgan. Xususan, bankning boshqa xususiy mulklari 2022-yil 1-yanvardagi 1339,4 mlrd so'mdan 2026-yil 1-yanvarda 9613 mlrd so'mga, boshqa aktivlar esa 5319,6 mlrd so'mdan 17494 mlrd so'mga yetgan. Ushbu ko'rsatkichlarning ortishi bank aktivlari tarkibida asosiy faoliyatdan tashqari aktivlarning ham kengayib borayotganini bildiradi. Bunday aktivlarning tarkibi va sifatini chuqur tahlil qilish zarur, chunki ular bankning umumiy aktivlari rentabelligi va likvidlik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tizimida aktivlar samaradorligi ko'rsatkichlarining 2022–2025-yillar bo'yicha dinamikasi¹

Sana	Mos yil yakuni	Jami aktivlar, mlrd. so'm	Sof foyda, mlrd. so'm	Aktivlar samaradorligi / ROA, %
01.01.2023	2022-yil yakuni	556 746,3	9 993	2,5
01.01.2024	2023-yil yakuni	652 157,1	12 380	2,6
01.01.2025	2024-yil yakuni	769 330,4	6 966	1,4
01.01.2026	2025-yil yakuni	924 763	15 502	2,2

Mazkur 2-jadval O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tizimi bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlar asosida shakllantirilgan bo'lib, unda jami aktivlar, sof foyda va aktivlar rentabelligi darajasi butun bank tizimi kesimida tahlil qilingan. Shu sababli jadval natijalari alohida tijorat bankining emas, balki mamlakat bank tizimining umumiy aktivlar samaradorligini ifodalaydi.

Shuningdek, mazkur jadvalda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tizimi bo'yicha aktivlar samaradorligi, ya'ni ROA (Return on Assets) ko'rsatkichi yillar kesimida aks ettirilgan. ROA ko'rsatkichi bank tizimida mavjud aktivlardan qanchalik samarali foydalanilayotganini ifodalaydi va sof foydaning jami aktivlarga nisbati orqali aniqlanadi. Shu jihatdan ushbu ko'rsatkich tijorat banklari moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va aktivlarni boshqarish samaradorligini baholashda muhim mezon hisoblanadi.

Aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichi bankning umumiy aktivlari hisobiga qanchalik sof foyda olayotganini ko'rsatadi. ROA bank menejmenti faoliyatining samaradorligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u aktivlardan foydalanish unumdorligini va boshqaruv siyosatining samarali ekanini aks ettiradi.

$$ROA = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami aktivlar}} \times 100$$

ROA ko'rsatkichi yuqori bo'lishi bankning resurslardan oqilona foydalanayotganini anglatadi. Masalan, ROA $\geq 1,5\%$ bo'lgan holat bankning aktivlarini samarali boshqarayotganini ko'rsatadi. Agar ko'rsatkich 1% dan past bo'lsa, bu holat bankning daromad olish salohiyati pastligi, aktivlar aylanuvchanligi sustligi yoki xarajatlar yuqori ekanidan dalolat beradi.

ROA ko'p jihatdan bankning biznes modeliga, aktivlar tarkibiga, kredit portfeli sifatiga va boshqaruv siyosatining samaradorligiga bog'liq. Masalan, cheklangan likvid aktivlar, yuqori riskli kreditlar yoki past foiz marjasi bankning ROA ko'rsatkichini pasaytiradi. Shu bois, banklar bu ko'rsatkichni yaxshilash uchun aktivlar tarkibini optimallashtirish, xarajatlarni nazorat qilish va yuqori daromad keltiradigan operatsiyalar ulushini oshirishga intiladilar (3-jadval).

1 <https://cbu.uz/uz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



3-jadval

“Mikrokreditbank” ATB aktivlar rentabelligi dinamikasi², 2021-2025yillar

Yil	Jami aktivlar, mlrd. so'm	Sof foyda / zarar, mlrd. so'm	Aktivlar rentabelligi ROA, %
2021	10 282,9	100,0	0,97
2022	13 483,4	38,4	0,29
2023	16 782,5	21,3	0,13
2024	23 542,5	-1 703,8	-7,24
2025	28 605,5	42,1	0,15

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillar davomida “Mikrokreditbank” ATB aktivlari hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, bankning jami aktivlari 2021-yilda 10282,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 28 605,5 mlrd so'mga yetgan. Bu davrda bank aktivlari qariyb 2,8 barobarga oshgan. Mazkur holat bank resurs bazasining kengaygani, kreditlash va boshqa aktiv operatsiyalari hajmi ortganini ko'rsatadi.

Biroq aktivlar hajmining oshishi bank rentabelligi bilan har doim ham mutanosib kechmagan. 2021-yilda bankning sof foydasi 100,0 mlrd so'mni tashkil etib, aktivlar rentabelligi 0,97 foiz bo'lgan. Bu ko'rsatkich tahlil davridagi eng yuqori ijobiy natijalardan biri hisoblanadi. 2022-yilda sof foyda 38,4 mlrd so'mga kamaygan va ROA 0,29 foizgacha pasaygan. 2023-yilda esa sof foyda 21,3 mlrd so'mni tashkil etib, aktivlar rentabelligi 0,13 foizgacha tushgan. Bu holat bank aktivlari kengaygan bo'lsa-da, ulardan olinayotgan sof daromad yetarli darajada shakllanmaganini bildiradi.

2024-yilda bank faoliyatida keskin salbiy holat kuzatilgan. Ushbu yilda bank 1 703,8 mlrd so'm zarar ko'rgan va natijada ROA ko'rsatkichi -7,24 foizni tashkil etgan. Bu aktivlardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada pasayganini, bankning xarajatlari yoki ehtimoliy yo'qotishlari daromadlardan yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Bunday natija kredit portfeli sifati, zaxira ajratmalari, operatsion xarajatlar yoki boshqa moliyaviy omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2025-yilda esa bank faoliyatida tiklanish belgilari kuzatiladi. Bank 42,1 mlrd so'm sof foyda olgan va ROA 0,15 foizni tashkil etgan. Bu 2024-yildagi zararli holatdan so'ng bankning foydali faoliyatga qaytganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2025-yildagi aktivlar rentabelligi hali past darajada bo'lib, bank aktivlari hajmiga nisbatan sof foyda yetarlicha yuqori emasligini bildiradi (4-jadval).

4-jadval

AT “Aloqabank” aktivlar rentabelligi dinamikasi³, 2021–2025-yillar

Yil	Jami aktivlar, mlrd. so'm	Sof foyda, mlrd. so'm	Aktivlar rentabelligi ROA, %
2021	12 638,5	107,6	1,5
2022	16 083,6	228,4	1,6
2023	16 044,7	607,7	3,8
2024	23 251,3	190,0	1,0
2025	31 527,5	251,5	0,9

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillar davomida AT “Aloqabank” aktivlari hajmi izchil o'sib borgan. Xususan, bankning jami aktivlari 2021-yilda 12 638,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 31 527,5 mlrd so'mga yetgan. Bu davrda bank aktivlari qariyb 2,5 barobarga oshgan. Mazkur holat bankning moliyaviy resurslari kengaygani, aktiv operatsiyalari hajmi ortgani hamda bank xizmatlari ko'lamini kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Bankning sof foydasi yillar kesimida turlicha dinamikaga ega bo'lgan. 2021-yilda sof foyda 107,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 228,4 mlrd so'mga oshgan. 2023-yilda esa sof foyda keskin ko'payib, 607,7 mlrd so'mga yetgan. Bu holat bankning daromad bazasi mustahkamlangani va aktivlardan foydalanish samaradorligi oshganini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tizimida 2021–2025-yillar davomida aktivlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bank aktivlarining tarkibiy tuzilmasida

2 “Mikrokreditbank” ATB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

3 AT “Aloqabank” ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



kredit qo'yilmalari yetakchi ulushni egallab, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda tijorat banklarining roli ortib borgan. Shu bilan birga, investitsiyalar va qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'larning sezilarli o'sishi banklar tomonidan aktivlar portfelini diversifikatsiya qilishga bo'lgan intilish kuchayganligini ko'rsatdi.

Tahlillar natijasida aktivlar hajmining o'sishi har doim ham rentabellikning oshishi bilan bir xil sur'atda kechmasligi aniqlandi. Ayrim hollarda bank aktivlari sezilarli darajada kengaygan bo'lsa-da, aktivlar rentabelligi (ROA) past darajada shakllangan yoki salbiy qiymatga ega bo'lgan. Bu esa aktivlarning miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda ularning sifati, daromadlilik darajasi va risk darajasini ham muntazam nazorat qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalarining yuqori ulushi daromad bazasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa-da, kredit portfeli sifatining pasayishi, muammoli kreditlar ulushining ortishi va likvidlik risklarining kuchayishi aktivlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bank aktivlarini boshqarishda rentabellik va risk o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lu, C., Niu, Y. Do companies compare employees' salaries? Evidence from stated-owned enterprise group // *China Journal of Accounting Research*. – 2022. – Vol. 15, Issue 3. – September. – P. 20.
2. Abduraximova D.K. Innovatsion bank mahsulotlarining jahon iqtisodiyoti taraqqiyotidagi roli va ularda qo'llaniladigan turlari // *Pedagogs jurnali*. – 2023. – T. 36. – № 1. – B. 161–170.
3. Rahmatov H.O'. Tijorat banklari tizimidagi innovatsion dasturiy ta'minot va maxsus platformalar xizmatlari: xorij tajribasi // *Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali*. – 2019. – № 3. – Iyul.
4. Szarzec K., Dombi Á., Matuszak P. State-owned enterprises and economic growth: Evidence from the post-Lehman period // *Economic Modelling*. – 2021. – Vol. 99. – June. – P. 20.
5. Wagner R. Can the market value state-owned enterprises without privatizing them? An application to natural resources companies // *Resources Policy*. – 2018. – Vol. 59. – December. – P. 282–290.
6. Karlibaeva R., Kurbonov K., Bekimbetova G., Shaturaev J. The effectiveness of investment projects in development of innovative activities of enterprises // *European Business Management*. – 2022. – Vol. 8. – № 3.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100